

Noma`lum

"Birinchi yor"

Visit "[Birinchi yor](#)" on MotoLyrics.com

Yostig'im parida - soching tolasi..
Yuragim qa'rida - qalbing nolasi,
Kechir, men - hayotning nodon bolasi,
Qadringni bilmadim, ey, birinchi yor.

Adashgan bandaman, yo'lim yo'qolgan,
Ko'ngil gulzorida gulim yo'qolgan,
Umrin o'taverar, dilim yo'qolgan,
Men esa bilmadim, ey, birinchi yor.

Yillab oh urguvchi bir ilhaq onam
Ortimdan zorlanar, qayda, deb, bolam,
Hijroning dastidan qaqshatar tanam,
Men esa yig'ladim, ey, birinchi yor.

Yostig'im parida - soching tolasi..
Yuragim qa'rida - qalbing nolasi,
Kechir, men - hayotning nodon bolasi,
Qadringni bilmadim, ey, birinchi yor.

Visit [Noma`lum](#) page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.